

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
oktyabr



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

7-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr.
2025-yil, oktyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASSESSING RISKS IN BANKING ACTIVITIES TO ENHANCE THE EFFICIENCY OF FINANCIAL SERVICES	21
Saidov Jasurbek Latipbayevich	
MECHANISMS OF THE IMPACT OF STATE BUDGET REVENUES AND EXPENDITURES ON ECONOMIC GROWTH.....	24
Sheraliyev Nurbek Jumanazarovich	
O'QUVCHI VA TALABALARDA HUQUQIY MADANIYATINI TA'LIM JARAYONIDA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA TAMOIILLARI	27
Mansurova Zilola Akromxonovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA FINTECH INNOVATSIYALARINING RIVOJI VA ULARNING SANOAT-QURILISH SEKTORIDAGI TRANSFORMATSION TA'SIRI	30
Muzayyana Beknazarova	
TURIZM SOHASIDA RAQOBAT AFZALLIKLARINI YARATISHDA MARKETINGNING ROLI	33
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI IJROSINI RAQAMLASHTIRISHNING FISKAL INTIZOM VA SHAFFOFLIKKA TA'SIRI	37
Tangrieva Farida Abdulkarimovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA SUN'IY INTELLEKTNI TATBIQ ETISH ORQALI BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	41
Radjabov Bunyod Abdullilovich	
XXI-ASRDA JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ASOSIY DRAYVERLARI	45
Jalolov Umidjon Xudoyberdi o'g'li, Yegamberdiyev Shuxrat Satimbayevich	
XALQARO RAQAMLI INTEGRATSIYA JARAYONIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKI	48
Muyassarzoda Fayziyeva	
ФИНАНСОВЫЙ КОНТРОЛЬ КАК КЛЮЧЕВОЙ ИНСТРУМЕНТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ И ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА	52
Турсунбоева Нилуфар Отабековна	
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ И ИНВЕСТИЦИИ	55
Ягудин Дмитрий Рустамович	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA BARQAROR TURIZM RIVOJI: GLOBAL TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	57
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA INVESTITSION QARORLARNI OPTIMALLASHTIRISH	59
Rustambekov Djasur Askarovich	
KORXONA POTENSIALINING MOHIYATI VA TUZILMASIGA OID NAZARIY HAMDA ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	61
Djalilov Sardor Sadillovovich	
XALQARO IQTISODIYOTNING GLOBAL DAROMAD TENGSIZLIKLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI: SAVDO SIYOSATLARI VA REDISTRIBYUTSIYA MEKANIZMLARINING TAQQOSLAYDIGAN TAHLILI	64
Kurolov Maksud Obidovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA INVESTITSIYA VA YHM O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	73
Zaripova Muqaddas Jumaniyozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISHNING MEHNAT BOZORI DINAMIKASIGA TA'SIRI	77
Akmalbek Najimov Umid o'g'li, Dinara Ishmanova	
ПРАКТИКА И АНАЛИЗ КРЕДИТОВАНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ	81
Шамшетьева Гульраушан	



AHOLI DAROMADLARI O'SISHI VA INFLYATSIYA DARAJASI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	83
G'ayratova Zilola G'anijon qizi, Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
KORXONALARDA MAHSULOT SAVDOSIGA OID MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHNING ZAMONAVIY INTELEKTUAL YONDASHUVLARI	86
Baydullayeva Dildora Tuylibayevna, Baydullayev Ruslan Tuylibayevich	
ELEKTRON TIJORATNING MILLIY IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	90
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
RAQOBATBARDOSH ELEKTROTEXNIKA MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUVISHDA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYA VA INVESTITSIYA SIYOSATINING O'RNI	93
Jalolov Abbasxon Ravshanxon	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	97
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
THE IMPACT OF EXTERNAL DEBT, INVESTMENT ACTIVITY, AND CAPITAL FORMATION PROCESSES ON EXPORT VOLUME AND ECONOMIC GROWTH DYNAMICS IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES	102
Tojiqulova Sitora Sobirjon qizi	
HUMAN CAPITAL AND DIGITAL TRANSFORMATION: DRIVERS OF SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT	108
Hamrokulov Mirabbos Ortiqovich	
YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI SOLIQ SIYOSATINI USTUVOR JIHATLARINI MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA QO'LLASH ORQALI SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	110
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li	
KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH KONSEPSIYASI	114
Turdibayev Abdulaziz Abduvaxidovich	
O'ZBEKISTONNING 12 YILLIK TA'LIM TIZIMIGA QAYTISH ISLOHOTI	118
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich, Mahmudov Ziyoviddin Shamsiddinovich, Ishmuratov Baxodir Xusanovich	
MAMLAKATNING XALQARO BAHOLASH TIZIMLARIDAGI MAVQEINI YAXSHILASHDA IQTISODIY MUSTAHKAMLIKNING AHAMIYATI	123
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
XALQARO SAVDODA MARKETING ROLI: EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	125
Qurolov Maqsud Obitovich	
BANK RISKLARINING BANK FAOLIYATIGA TA'SIRI VA ULARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	130
B.Izbosarov, N.Hakimova	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MASALASINING JAHON IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	132
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
DYUZDO SPORTIDA MALAKALI SPORTCHILARNI TAYYORLASH JARAYONIDA TAKTIK TAYYORGARLIKNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	135
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
SANOATDA QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI OSHIRISH	138
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOSHQARUVI UCHUN SUN'IIY INTELLEKTNING KENGAYTIRILGAN BASHORATLI TAHLILI	142
Esanova Shohida O'tkirovna	
PROSPECTS OF USING CREDIT CARDS IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	146
Mamatova Sevara Ilhom qizi	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI SUG'URTALASH MEKANIZMLARINI YANADA KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI	151
Xalilova Feruza Jamolovna	



O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI SUG'URTALASH MEXANIZMLARINI YANADA KENGAYTIRISH YO'NALISHLARI

Xalilova Feruza Jamolovna

“Mikrokreditbank” ATB Navoiy viloyat
hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi

E-mail: firuza_xalilova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekistonda eksport faoliyatini sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan samarali tadbirlarni tashkil etishga xizmat qiluvchi Eksportni sug'urtalash agentligi faoliyatini tashkil etishga qaratilgan ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: eksport faoliyati, eksport kreditlarini sug'urtalash, eksport yuklarini sug'urtalash, eksport kredit agentliklari, qishloq xo'jaligi sohasi eksporti, yengil sanoat sohasi eksporti, eksportni moliyalashtirish mexanizmlari, eksportni sug'urtalash faoliyatida xorij tajribasi.

Abstract. This thesis presents information aimed at establishing the activities of the Export Insurance Agency, which serves to organize effective measures directed at improving the mechanisms of export activity insurance in Uzbekistan.

Keywords: export activity, export credit insurance, export cargo insurance, export credit agencies, agricultural sector exports, light industry exports, export financing mechanisms, foreign experience in export insurance.

Аннотация. В данном тезисе приведена информация, направленная на организацию деятельности Агентства по страхованию экспорта, которое способствует внедрению эффективных мер по совершенствованию механизмов страхования экспортной деятельности в Узбекистане.

Ключевые слова: экспортная деятельность, страхование экспортных кредитов, страхование экспортных грузов, агентства экспортного кредитования, экспорт сельскохозяйственного сектора, экспорт лёгкой промышленности, механизмы финансирования экспорта, зарубежный опыт в страховании экспорта.

KIRISH


Mamlakatda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va eksport geografiyasini kengaytirish, shuningdek eksport jarayonlarini sug'urtalash tizimini takomillashtirish yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga, bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, pirovard natijada aholi farovonlik indeksining oshishiga olib keladi. Eksport faoliyatini sug'urtalash tizimini turli xil yo'llar bilan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari mavjud bo'lib, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra eksportni sug'urtalash instrumentlari faoliyatini kengaytirish orqali eksport hajmini oshirish mumkin. Jahon bozorida eksport hajmi bo'yicha eng yuqori ulushga ega bo'lgan AQSh, Xitoy, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va Angliya kabi davlatlarda eksportni sug'urtalash tizimi ham davlat tomonidan, ham xususiy sektor tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra eksport faoliyati Eksport kredit agentliklari (EKA) tomonidan to'liq sug'urta xizmatlari bilan qamrab olingan.

Eksportni sug'urtalash va unga moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Maqolani yozish davomida MDH mamlakatlari olim va mutaxassislaridan A.I. Prishchepa, A.O. Petrov, N.N. Shekolinskiy, N. Petrakov¹, shuningdek xorijiy olim va mutaxassislaridan Patrik Messerlin, Hideki Funatsu va A. Karter² ning bu boradagi ilmiy ishlarini tahlil qildik.

1 Прищепа А.И., Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли. Экономика и управление. – 2012. – № 2 (34); Петров А.О. Развитие внешнеэкономической деятельности малого и среднего бизнеса в различных странах мира. Научный журнал Донецкого национального университета, 2007; Шеколинский Н.Н. Экспортные кредитные агентства как механизм государственной финансовой поддержки. Диссертация на соискание ученой степени кандидата.

2 Patrick Messerlin. Export credit subsidies. Economic Policy. Vol 2, No 4. (Apr 1989) www.jstor.org; Hideki Funatsu. Export Credit Insurance. The Journal of Risk and Insurance. Vol 53, No 4. (Dec 1986) www.jstor.org; A. Carter. United States Export Subsidies in Wheat: Strategic Trade policy or Expensive Beggar – Thy – Neighbour Tactic? American Journal of Agricultural Economics. Vol 74, No 3. (Aug 1992) www.jstor.org

Rivojlangan mamlakatlarda eksportchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida eksport faoliyatini sug'urtalash va kafolatlashning turli yo'nalishlari tashkil etilgan. Masalan, Xitoyda China Export & Credit Corporation davlat korporatsiyasi tashkil etilib, uning vazifalari mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xorijiy xaridorlarga eksport qilinayotgan mahsulotlar uchun imtiyozli kreditlar berish, eksport qilinayotgan Xitoy mahsulotlarini sug'urta qilish, Xitoy eksporti va investitsiyalarini rag'batlantirishdan iborat. Rossiyada esa 2007-yildan boshlab eksportchilarga kreditlar berish va tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalash "Vneshekonombank" tomonidan amalga oshirilgan, lekin sug'urtalovchi kreditor bo'la olmasligi sababli, 2011-yilda eksportga yo'naltirilgan kichik va o'rta biznes subyektlari hamda ularni xorijiy kontragentlar tomonidan to'lanmaslik xavfidan sug'urtalash bo'yicha alohida davlat tuzilmasi — EKSAR (Eksport sug'urta agentligi) tashkil etildi.



1-rasm. O'zbekiston eksport ko'rsatkichlari.(mln. AQSh doll.)³

So'nggi besh yillikda O'zbekistonda jami eksport hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2017–2022 yillar mobaynida O'zbekistonning eksport geografiyasi 16 ta mamlakatga kengaygan, bugungi kunda mamlakatimizdan mahsulotlar 117 ta davlatga eksport qilinmoqda. Tovar nomenklaturasida 2017-yildagi 179 xil mahsulot turi 2022-yilga kelib 200 dan oshgan.

O'zbekistondan asosan quyidagi mamlakatlarga mahsulotlar eksport qilinib, Peru (3 mln 965,9 ming dollar), Albaniya (3 mln 196,3 ming dollar), Shimoliy Makedoniya (1 mln 454,7 ming dollar), Senegal (311,7 ming dollar), Mavrikiy (303,1 ming dollar) kabi mamlakatlarga ham mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi.

2022-yilda paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o'rniga paxtadan tayyorlangan qo'shilgan qiymati yuqori tovarlar eksporti yo'lga qo'yildi. Jumladan, umumiy qiymati 1 mlrd 613,5 mln dollarga teng bo'lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 mln dollarlik tayyor trikotaj va to'qimachilik mahsulotlari, 242,8 mln dollarlik naqshli mato, 131,6 mln dollarlik gazlamalar, 78,1 mln dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 mln dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilingan⁴.

O'zbekistondan tayyor mahsulotlarni eksport qilishda eng katta muammolardan biri bu geografik omil bo'lib, O'zbekistondan to'g'ridan to'g'ri dengizga chiqadigan yo'lining yo'qligi va logistika infratuzilmasining takomillashmaganligi eksport mahsulotlari narxining oshishiga, bu esa xalqaro savdoda raqobatga kirishishda bozorlerde ustunlikni saqlashga xalaqit qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020-yildagi PQ–4707-son "Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, jahon bozorlarida raqobat keskinlashib borayotgan sharoitda mahsulotlar eksporti hajmini oshirish orqali yangi bozorlariga kirib borish va an'anaviy bozorlerde o'z o'rnini mustahkamlash uchun eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish maqsadida eksport bo'yicha avtomobil, havo va temir yo'l transportida tashish xarajatlarini qisman kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish tartibi hamda eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda sug'urta mukofotini qoplashga O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan kompensatsiyalar taqdim etish tartibi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi⁵.

3 Манба: www.stat.uz - Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги.

4 <https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/experts-told-how-the-geography-of-uzbekistan-s-exports-has-changed-over-the-past-5-years/> Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги ҳузуридаги Хорижий инвестицияларни жалб этиш агентлиги манбаси.

5 <https://lex.uz/docs/4806730> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.05.2020 йилдаги ПҚ-4707-сон қарори.




Eksport faoliyatini sug'urtalash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 25.08.2020-yildagi 512-son qarori qabul qilinib, "Eksport qiluvchilar garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, sug'urta mukofoti uchun to'lov xarajatlarini kompensatsiya qilish tartibi to'g'risida" Nizom tasdiqlandi. Nizomga ko'ra eksport qiluvchilar quyidagi sug'urta shartnomalariga asosan garov sifatida sug'urta xizmatlaridan foydalanganda, sug'urtalovchilarga to'lab berilgan sug'urta mukofotining 100 foizi, lekin sug'urta pulining 0,5 foizidan ortiq bo'lmagan qismi O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan kompensatsiya qilib berilishi belgilandi:

- eksport shartnomasi bo'yicha majburiyatlar bajarilmasligini sug'urta qilish shartnomasi;
- eksport qiluvchining qisqa yoki uzoq muddatli debitor qarzdorligini sug'urta qilish shartnomasi;
- eksport faktoringini sug'urta qilish shartnomasi;
- eksport qiluvchining aylanma mablag'larini to'ldirish krediti o'z vaqtida qaytarilmasligidan sug'urta qilish shartnomasi.

Sug'urta faoliyatida sug'urtalash jarayonlari o'ziga tegishli bo'lgan sug'urta klasslari orqali amalga oshirib boriladi. Eksport sug'urtasi O'zbekistonda qabul qilingan sug'urta faoliyati klassifikatoriga ko'ra 7-klass — "Yo'ldagi mol-mulkni sug'urtalash" orqali amalga oshiriladi. Ushbu sug'urta turini umumiy sug'urta faoliyatini olib borishga litsenziyasi mavjud bo'lgan sug'urta kompaniyalari amalga oshirishi mumkin.

O'zbekistonda so'nggi yillarda "O'zbekinvest" EISK AJ bilan bir qatorda "Impex-Insurance" AJ, "SQB Insurance sug'urta kompaniyasi" AJ, "Apex Insurance" AJ kabi sug'urta tashkilotlari tomonidan sug'urta qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan berilgan yillik hisobotlarda eksportga daxldor bo'lgan yo'ldagi mol-mulkni sug'urtalash bo'yicha ma'lumotlar tahlili quyidagi xulosalarni keltirmoqda⁶.



2-rasm. 7-klass. Yo'ldagi mol-mulkni sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofatlari (mln so'mda)

Tahlillarimizga ko'ra, 2020-yildan 2022-yilgacha yo'ldagi mol-mulkni sug'urtalash bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofatlari hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, bu o'z navbatida O'zbekistondan eksport qilinayotgan mahsulotlar hajmining ham oshib borayotganligi bilan bog'lanadi. Eksport qilinayotgan mahsulotlarni yo'ldagi xavf-xatarlardan to'liq sug'urtalashni rivojlantirish uchun sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini oshirish, investitsion faoliyatni kengaytirish kabi muhim omillarga e'tibor qaratishlari lozim hisoblanadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, eksportni sug'urtalash tizimining takomillashuvi natijasida mamlakat eksport hajmi kengayadi va mamlakatdagi eksport qiluvchilarning moliyaviy barqarorligi oshadi. Eksportni sug'urtalashning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida sug'urta kompaniyalarining eksport jarayonlarini sug'urtalashga ixtisoslashuvi oshib, ular o'rtasida o'ziga xos raqobat ham shakllana boshlaydi. Eksport faoliyatini sug'urtalashda hududlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyekti hisoblangan eksport qiluvchilarga nisbatan kompleks sug'urtalash xizmatlarini joriy etish ularning faoliyatlarini kengayishiga sabab bo'ladi. Eksport faoliyatini sug'urtalash amaliyotini yo'lga qo'ygan sug'urta tashkilotlariga nisbatan davlat tomonidan turli xil qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini yaratish zarur.

⁶ <https://imda.uz/uz/> Молия вазирлиги ҳузуридаги Суғурта бозорини ривожлантириш агентлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланди.



Dunyoda eksport bozorlarining rivojlanishi bir tomondan eksportchilarning faol va samarali siyosati, ikkinchi tomondan davlatning kuchli moliyaviy yordami tufayli jadallik bilan kechmoqda. Xalqaro tajribaga ko'ra, Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy va Janubiy Koreya eksport bozorlarining so'nggi yillarda yuqori ko'rsatkichga ega bo'layotgani kuzatilmoqda. Bu mamlakatlar eksportchilari Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlari eksportchilari bilan raqobat qilmoqda. Janubiy Koreya Eksport-Import banki (KEXIM) hamda Koreya eksport sug'urta korporatsiyasi (Korea Export Insurance Corporation — KEIC) kabi eksport sug'urta agentliklari mamlakat eksport salohiyatining oshishiga yuqori darajada xizmat ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eksport sug'urta agentliklari (EKA) xalqaro savdoni moliyalashtirish va rivojlantirishning muhim manbai hisoblanadi. Ular ko'p tomonlama va ikki tomonlama agentliklar bilan birgalikda turli mamlakatlarga yirik moliyaviy oqimlarni jalb etishga ko'maklashmoqda. Ular kreditlarni sug'urta qiladilar yoki to'g'ridan to'g'ri import qiluvchilarga kredit beradilar, ularni turli xil tijorat va siyosiy xavflardan sug'urta qiladilar. Ko'pgina eksport agentliklari qat'iy belgilangan foiz stavkasi asosida ishlaydi va foiz stavkalarining ma'lum darajada saqlanishini ta'minlaydi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda eksport qiluvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va sug'urtalash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekistonda eksportni sug'urtalash agentligini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-dekabrdagi PQ–4069-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/4116006>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.05.2020-yildagi PQ–4707-son qarori. <https://lex.uz/docs/4806730>
3. Shekolinskiy N. N. "Eksportnye kreditnye agentstva kak mekhanizm gosudarstvennoy finansovoy podderjki". Dissertatsiya na soiskanie uchenoy stepeni kandidata ekonomicheskikh nauk. Moskva, 2016. – 142 s.
4. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi ma'lumoti. <https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/experts-told-how-the-geography-of-uzbekistan-s-exports-has-changed-over-the-past-5-years/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari. www.stat.uz
6. Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi ma'lumotlari. <https://imda.uz/uz/>
7. Prishchepa A. I. "Mekhanizmy vneshnetorgovogo finansirovaniya eksportnykh operatsiy v mezhduнародnoy praktike vedeniya trgovli". Ekonomika i upravlenie, 2012, № 2 (34), s. 23–27.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100